

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



**TA’LIM TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA TILLARNI
O‘QITISHNING MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI**

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami

2024-yil 17-may

**Сборник материалов международной научно-практической
конференции**

**ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ЯЗЫКОВ
В УСЛОВИЯХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ**

17 мая 2024 года

Collection of materials of the international scientific and practical conference

**PROBLEMS AND PROSPECTS OF LANGUAGE TEACHING IN THE
CONTEXT OF EDUCATIONAL TRANSFORMATION**

May 17, 2024

Guliston – 2024

BAG‘RIKENGLIK TARBIYASI OILADAN BOSHLANADI

Aytbayeva Gulchexra Yermekbayevna, katta o‘qituvchi, Guliston davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Mazkur maqolada yosh avlodni bag‘rikenglikka tarbiyalash, birinchi navbatda, oiladan boshlanishi haqida, har bir ota-ona farzandlarining birinchi tarbiyachisi ekanligi, bola ota-onalarning insoniy, odamgarchilik hayotining ko‘zgusi ekanligi hamda oila yosh avlodni shaxs sifatida shakllantirish manbayi ekanligi haqida fikrlar yuritiladi.

Kalit so‘zlar: ta’lim va tarbiya, pedagog-o‘qituvchi, tolerantlik, bag‘rikenglik, diktat, giperopeka, millatlararo muloqot, tarbiya

Insonda bolalikdan boshqa odamni qanday bo‘lsa, shundayligicha, uning fikri, tabiyati, madaniyati, qarashlaridagi murakkabliklar bilan qabul qila olish layoqatini shakllantirish lozim. Ta’lim va tarbiya orqali yoshlarga shunday fikrni singdirish orqali odamlar turmush tarzi, madaniyati, ijtimoiy kelib chiqishi, moddiy faravonligi va hokazolarga qaramay, o‘zaro teng ekanligini anglatishi lozim.

Inson dunyosi – bu bitmas-tuganmas axborot almashinuvi, odamlarning bir-biri bilan aloqasi va til topishishi. XIX asr nemis faylasufi Artur Shopengauerning qarashiga ko‘ra, ta’limning eng yuqori ko‘rsatkichi tarbiyadir [4; 19 b.] O‘qituvchi pedagog qanday avlodni tarbiyalashi kerak, to‘liq ziyoliy shaxsnimi yoki bitmas sarbozlarnimi? Bu savollar ko‘pincha publisistik maqolalarda, ilmiy tadqiqotlarda, eng muhimi, kundalik hayotda va tarbiya amaliyotida paydo bo‘ladi. Zamonaviy globallashuv sharoitida boshqalar bilan teng huquqli yashashga qodir, hurmat bilan, o‘ziga xos xususiyatlaridan xabardor bo‘lgan shaxsni tarbiyalash dolzarb muammolardan biridir. Bu masalada muvaffaqiyatga erishish uchun, birinchi navbatda, pedagogik jarayonning yetakchi subyektini – pedagog-o‘qituvchini tayyorlashga yangicha qarash, uning bag‘rikengligini shakllantirish kerak. Tolerantlikning asosi insonning “boshqa, begona”ga munosabatini nazorat qilishdir. Bu biz har kuni duch keladigan muammo, uy darajasidan tortib professional muloqotgacha bo‘lgan hamma narsani qamrab oladi, deb ishonadi.

“Bag‘rikenglik” atamasini farqlashda olimlar o‘rtasida jiddiy qarama-qarshiliklar paydo bo‘lgan. Umumiy tarzda bag‘rikenglikning ma’nosi nima? Uning chegaralari qanday va, umuman, chegarasi bormi? Tolerantlik tushunchasi bir ma’noda, bu “bag‘rikenglik” so‘zi bilan bevosita bog‘liq, qozoq tilida esa “murosallilik”, “sabrlik”, “sabr”, “toqat” ma’nolarida ham ishlatiladi, ya’ni, “to‘zimli bo‘lish” – boshqaga, uning harakatlariga, har hil vaziyatdagi holatlariga cheksiz to‘zish va chidash demakdir [1; 121b., 3; 27 b., 4; 153-181b., 5; 44-49 b., 6; 28-29 b., 7; 20-25 b.]

“Tolerantlik” tushunchasi lotin tilida “sabr” degan ma’noni anglatadi, ya’ni, boshqalarning dunyoqarashi va turmush tarziga toqat (chidam, to‘zim) qilish, bardosh berish. Ijtimoiy bag‘rikenglik boshqa odamlarning qarashlariga va boshqalarga, ularning madaniyatiga hurmatni tushunishni anglatadi. Tolerantlik munosabat – bu inson huquqlari, erkinligi va xavfsizligini ta’minlaydigan ijtimoiy qadriyat. “Tolerantlik” tushunchasi pedagogik lug‘atga kiritilgan, chunki hozirgi

vaqtda oilalararo, millatlararo totuvlik tushunchasi bilan bevosita bog‘liq va avlodlarga bag‘rikenglikni singdirish tarbiyasi masalasidir [10, 11]

Yosh avlodni bag‘rikenglikka tarbiyalash, birinchi navbatda, oiladan boshlanadi. Har bir ota-ona farzandlarining birinchi tarbiyachisidir. Bola ota-onalarning insoniy, odamgarchilik hayotining ko‘zglasidir. Oila yosh avlodni shaxs sifatida shakllantirish manbasi hisoblanadi. Bola uchun oila, bir tomondan, titrikchilik qo‘rg‘oni bo‘lsa, ikkinchi tomondan, tarbiya markazi. Ota-ona – bag‘rikenglikning namunasi bo‘lishi kerak. Ota-onalar tomonidan berilgan namunalar xulq-atvor tajribasini o‘rganishda katta ahamiyatga ega [9; 227-233].

Demokratik fikrlaydigan ota-onalar, birinchi navbatda, bolaning harakatlaridagi mustaqillikni baholaydilar. Ota-ona bolaga erkinlik beradi va mustaqil harakatlarga imkon yaratadi, ya‘ni bolaning o‘z huquqlarini oyoq osti qilmasligini, shuningdek, o‘z vazifalarini bajarishini talab qiladi. O‘z navbatida, demokratik muloqot uslubi bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini orttirib, uning nomusi bilan sharafini oshiradi.

Ko‘rib turganingizdek, ushbu to‘rtta munosabatlardan – diktat, giperopeka, bola hayotiga aralashmaslik va demokratik muloqot – faqat oiladagi ittifoqchilik bolaga odamlar bilan muloqot qilishning muhim tajribasini beradi. Bunday munosabatlarida bola boshqalarni tinglashni va ularning qarashlarini hurmat qilishni, qarindoshlari va do‘stlariga sabr-toqatli bo‘lishni o‘rganadi. Ota-onalarning mas‘uliyati faqat farzandlarining ijodiy energiyasini to‘g‘ri yo‘nalishga yo‘naltirishdir. Ota-onalar farzandlarini ezgulik, o‘zaro hurmat, mehr-muhabbat, ayash va rahimdillikka tarbiyalash orqali farzandlari uchun kelajak hayot tarzini yaratadilar. Shuning uchun ota-onalar bag‘rikeng shaxsni tarbiyalash uchun bolalarni erta yoshdan boshlab tarbiyalashda faol ishtirok etishlari shart. Bu yerda bag‘rikenglik haqida gapirishning o‘zi yetarli emas, bolalarni tarbiyalash, ularda yaxshi fazilatlarni rivojlantirish, shaxslararo muloqot madaniyati, bir-biriga o‘xshamaydigan odamlar dunyosida yashashni rivojlantirish bilan tarbiyalash zarur. Ota-onalarning vazifasi – bolalar bilan yashash, ularning qalbini yaxshi mazmun bilan to‘ldirishdir. Faqat yaxshi oilaviy munosabatlarga bolaning bag‘rikeng bo‘lib o‘sishiga yordam beradi.

Ko‘pmillatli davlatda yoshlar o‘rtasidagi ijtimoiy-psixologik munosabatlarning tarmoqlaridan biri – xalqlarga va millatlarga hurmat bilan qarash. Shuning uchun bolaga turli millat vakillarining o‘ziga xos milliy xususiyatlarga ega ekanligini tushuntirish kerak.

Millatlararo muloqot madaniyatiga, bag‘rikenglik-to‘zumlilik fazilatlarini xutmat qilish, birinchi navbatda, milliy tarbiya asosida amalga oshiriladi. Milliy tarbiyaning asosiy manbalari esa folklor, milliy adabiyot, urf-odatlar, an‘analar, notiqlik san‘ati, maqol va matallar, mutafakkirlar asarlaridagi tarbiyalar xisoblanadi. Shu bilan birga, har bir oila qarindoshlik, farzandlik burchi va qarzi, milliy nomus, milliy idrok, insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik kabi fazilatlar bilan bolani tarbiyalashda hamda yuqorida qayid etganimizdek, milliy tarbiyaning asosiy manbalari – milliy tarbiya vositasi sifatida bag‘rikenglikka tarbiyalashda boshchilikga olinishi zarur. Bu, o‘z navbatida, yoshlar o‘rtasida millatlararo bag‘rikenglik va o‘zaro (bir-birini) tushunishni oshirishga yordam

beradi. Bu esa O‘zbekistonda yashovchi turli millat vakillariga boshqa millatlarning madaniyatini, tilini, urf-odatlarini o‘z madaniyati bilan taqqoslab, ortiqchiligini va kamchiliklarini qabul qilishga sharoit yaratib, yoshlar o‘rtasida etnosaro to‘zumlilik va o‘zaro bir-birini tushunishining ortishiga ta’sir qiladi. Shundagina har bir millat vakili milliy o‘zligini yo‘qotmaydi, aksincha, bag‘rikenglik yosh avlodning jamiyatda til va milliy xususiyatlarni saqlab qolishga imkoniyat yaratadi. Shunday qilib, bag‘rikenglik yosh avlodning kundalik hayotining odatiga, an’anasiga aylanadi hamda bizning umumiy va tarixiy-madaniy makonimizda jamiyatni birlashtiruvchi muhim omilga aylanadi. Zamonaviy ko‘pmillatli O‘zbekiston sharoitida bag‘rikeng inson – bu o‘zining va boshqalarning madaniyatini hurmat qiladigan, milliy nomusga ega shaxs.

Tarbiya – bu yosh avlod tomonidan asrlar davomida to‘plangan bo‘lib, odamlarning fazilatlarini singdirish, bolaning atrof-muhitga munosabatini, hayotga munosabatini shakllantirishdir. Oila bola hayotidagi eng asosiy tarbiya manbai hisoblanadi. Ota-onalarning eng konstruktiv ijtimoiy faoliyati bu ularning farzandlarini qanday tarbiyalashi va takomillashtirishidir. Demak, har bir yoshga xos bo‘lgan bolalarga ziddiyatlar sabablarini tushuntirib, ota-onalarga bolani bu qiyinchilikdan muammosiz olib chiqishga o‘qituvchi yordamga kelishi kerak. Shuning uchun ota-onalar va o‘qituvchilar bolalarni tarbiyalash ustida birgalikda ishlashlari shart. U ma’naviy-axloqiy saboqlarni madaniyatli hayot bilan bog‘lab, tarbiyaning barcha bosqichlariga asoslanishi zarur, shundagina yetuk xulq-atvorga ega, o‘z vazifalarini aniq biladigan ongli shaxs bo‘lib shakllanadi. Bu maqsadga faqat haqiqiy o‘qituvchilar ishtirokida erishish mumkin. Faqat bolalarni sevadigan va o‘z ishiga berilgan, sadoqatli o‘qituvchigina ularni mehribon inson bo‘lishda bebaho yordam bera oladi.

Demak, yosh avlodni bag‘rikenglikka tarbiyalashni oiladan boshlash kerak.

Adabiyotlar

1. Locke J. A Letter Concerning Toleration. The edition referred to is translated by W. – Gough. Oxford University Press, 1968. – P. 121.

2. Schopenhauers Aphorismen zur Lebensweisheit, Leipzig: Insel-Verlag, 1917, – P. 19.

3. Аболин Б.И. Концепт «толерантность» в когнитивно-дискурсивном аспекте: дис. ... канд. филол. наук. Екатеринбург, 2009. 27 стр

4. Грей Д. Толерантность: теория и практика. Часть II. DOI: 10.31249/rphil/2023.02.10. 153-181 стр;

5. Логинов А.В. Толерантность: «За» и «против» Вестник Пермского университета. Философия. Психология. Социология. Выпуск 1 (13). – Пермь, 2013. 44-49 стр.

6. Мұсылманов А. Тәрбие жұмысының модульдік технологиясының модулі. – Алматы, 2009. 28-29 б.

7. Самсонов А. Л. Модели общества: от хаоса к толерантности / А.Л.Самсонов // Экология и жизнь. – 2003. – № 2. – С. 20-25.

8. Ибрагимов В. Ижтимоий фаоллик ва толерантликни юксалтиришнинг муҳим жиҳатлари. Research Focus, Uzbekistan. Volume 1 | Issue 4 | 2022. – Б. 351-354.

9. Жазыкова М.К. Жас ұрпақты толеранттыққа тәрбиелеудегі мектеп пен отбасының әрекеттестігі. Қазақ мемлекеттік қыздар педагогикалық университетінің Хабаршысы. № 2 (78), – Алматы, 2019. – Б. 227-233.

10. <https://kpfu.ru/portal/docs/F2070830177/12>. – Gagaev. pdf.

11. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-t/tolerantlik-uz/>

NEMIS TILI LUG‘AT TARKIBIDAGI O‘ZLASHMA SO‘ZLAR VA ULARNING KIRIB KELISH OMILLARI

Umarova Zamira Qahramon qizi, o‘qituvchi, O‘zbekiston milliy universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada nemis tiliga chet tillardan o‘zlashgan so‘zlar va ularning kirib kelish yo‘llari haqida so‘z boradi. Kirish qismida til lug‘at tarkibining boyish usullari, o‘zlashma tushunchasiga berilgan ta’riflar haqida so‘z boradi. Adabiyotlar tahlili qismida nemis tiliga qaysi tillardan va qaysi sohalarda so‘zlar o‘zlashgani haqida fikr yuritiladi. Nazariy asoslar qismida o‘zlashma so‘zlarning ahamiyati va roli haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: O‘zlashmalar, nemis tili, lug‘at tarkibi, xorijiy tillar, kelt tili, lotin tili, ingliz tili, fransuz tili, anglisizmlar, rivojlanish, so‘z boyligi, o‘zlashtirish;

Ma’lumki, dunyodagi har bir xalqning jahon siviliziyasidagi o‘rni va mavqei uning betakror milliy o‘zligi va tarixiy tajribasi bilan belgilanadi. Milliy o‘zlikning birinchi belgisi bu milliy til bo‘lib, u millatning millat bo‘lib shakllanishida muhim shartlardan biri hisoblanadi. Xalqning madaniy-ma’naviy boyligi, tafakkuri uning tilida o‘z ifodasini topadi. Shu ma’noda, til xalqning buyuk va bebaho ma’naviy boyligi, bitmas tunganmas xazinasidir. Til, ayniqsa uning lug‘at tarkibi doim o‘sish va o‘zgarishda bo‘ladi. Til lug‘at boyligini kengaytirishning eng muhim usullaridan biri bu boshqa tillardan so‘zlarning o‘zlashish jarayonidir. Chet tilidan so‘zlarning kirib kelishi va ularning ishlatilishi tilda ma’lum bir yangi so‘zlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi va bu turdagi so‘zlar guruhi o‘zlashma so‘zlar deyiladi. O‘zlashma so‘zlar tushunchasiga olimlar tomonidan turli xil ta’riflar berilgan:

Hadumond Bußmanning fikriga ko‘ra, “o‘zlashma so‘zlar, odatda ona tilida yangi yaratilgan narsa yoki hodisalarning nomi bo‘lmagan hollarda chet tilidan o‘zlashtiriladi.[2, 213-b.].

Wilhelm Bondzining so'zlariga ko'ra, "xorijiy so‘zlar o‘zining ma'nosi bilan birga to'liq, ba'zida esa bir nechta ma'nolardan faqat bittasigina o‘zlashishi mumkin. Asta-sekin bu xorijiy so'zlar o'zining formasi, imlosi va talaffuzi bilan o'zlashtirilgan til tizimiga moslashadi, masalan: Lotin tilidan Fenstra nemis tiliga das Fenster shaklida o‘zgargan”.[1, 182-b.].

G‘arbiy Yevropa tillaridan biri hisoblangan nemis tili yillar davomida qo‘shni davlatlarning tillari, jumladan qadimgi kelt tili, lotin tili, shuningdek fransuz, ispan va ingliz tillaridan olingan so‘z va iboralar asosida o‘z lug‘at tarkibini